

**ALIMULLA HABIBULLAYEV “ADABIY MANBASHUNOSLIK
VA MATNSHUNOSLIK” QO‘LLANMASINING AMALIY
AHAMIYATI**

Nematullayeva Maftuna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi

akademik litsey o‘qituvchisi

**ALIMULLA HABIBULLAYEV THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF
THE MANUAL "LITERARY SOURCE STUDIES AND TEXTUAL
STUDIES"**

Nematullayeva Maftuna

Teacher of the Academic Lyceum at the Tashkent State University of Economics

**АЛИМУЛЛА ХАБИБУЛЛАЕВ. ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ
ПОСОБИЯ «ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И
ТЕКСТОЛОГИЯ»**

Неъматуллаева Мафтуна

Преподаватель академического лицея при Ташкентском государственном
экономическом университете

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alimulla Habibullayev tomonidan yozilgan “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” qo‘llanmasining amaliy ahamiyati yoritilgan. Unda qo‘lyozmalar bilan ishlash, ularni ilmiy tanqidiy tahlil qilish, matnlarni tiklash va nashr etish jarayonidagi uslubiy yondashuvlarning filologik ta’lim va tadqiqotlar uchun ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается практическое значение учебного пособия Алимиллы Хабибуллаева «Литературное источниковедение и текстология». Подчёркивается роль работы с

рукописями, их критический анализ, восстановление и публикация текстов для филологического образования и исследований.

Abstract: This article examines the practical significance of Alimulla Habibullaev's textbook "Literary Source Studies and Textology". It highlights the importance of working with manuscripts, their critical analysis, restoration and publication of texts for philological education and research.

Kalit soʻzlar: manbashunoslik, matnshunoslik, qoʻlyozmalar, filologiya, ilmiy-tanqidiy matn, adabiy meros

Mustaqil Oʻzbekiston sharoitida milliy merosimizni ilmiy asosda oʻrganish, qadimiy qoʻlyozmalarni tiklash va nashr etish, shuningdek, adabiy manbashunoslik hamda matnshunoslikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Alimulla Habibullaevning "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" nomli qoʻllanmasi ushbu jarayonda muhim ilmiy-amaliy asos boʻlib xizmat qiladi. Matnshunoslik fanining asosiy vazifasi matnlarni ilmiy-tanqidiy oʻrganish va nashr qilishdan iborat. Qoʻllanmada matnshunoslikning badiiy, tarixiy, ilmiy asarlar bilan ishlash usullari, matnni qayta tiklash prinsiplari, muallif variantini aniqlash metodlari keng yoritilgan. Qoʻlyozma matnlarning variantlari. Kitobda matnlarning yagona va koʻp nusxali variantlari haqida maʼlumot berilgan. Masalan, Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni yoki Durbekning "Yusuf va Zulayxo" dostonining yagona nusxalari keltiriladi. Matnshunoslikning vazifasi ushbu nusxalarni solishtirib, eng ishonchli matnni tiklashdan iboratdir. Matnshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Habibullaevning qoʻllanmasida matnshunoslikning uslubshunoslik, arxeografiya, paleografiya, poetika, germeneytika, bibliografiya kabi fanlar bilan uzviy bogʻliqligi koʻrsatilgan. Bu bogʻliqlik matnshunoslik tadqiqotlarining mukammalligini taʼminlaydi.

Qoʻllanmada miflar, afsonalar, rivoyatlar, xalq qoʻshiqlari, dostonlar, xalq kitoblari matnlarini yozib olish, tartibga solish va nashr etish usullari yoritilgan. Bu jihat matnshunoslikning faqat yozma meros emas, balki ogʻzaki adabiy merosni ham

qamrab olishini ko'rsatadi. Nashr turlari va ularning talablari. Asarda ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop nashrlarning xususiyatlari tahlil qilingan. Ilmiy nashrlarda matnlarning barcha variantlari ko'rsatiladi, izoh va ko'rsatkichlar beriladi. Ommabop nashrlarda esa keng kitobxonlar uchun qulay variantlar tayyorlanadi. Qo'lyozmachilik san'ati va kitobat. Habibullaev qo'lyozmachilik san'ati, kitobatchilik, naqqoshlik va xattotlik haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Qog'ozning kashf qilinishi va Samarqandda kitob yaratish an'analari kitobda keng tahlil qilingan. Matnshunoslikning amaliy ahamiyati. Qo'llanma matnlarni tanqidiy nashrga tayyorlash, nusxalar solishtirish, variantlarni qayd etish, ilmiy izoh berish kabi amaliy jarayonlarning metodikasini ko'rsatib beradi. Shu bois u nafaqat nazariy manba, balki tadqiqotchilar uchun bevosita amaliy qo'llanmadir

Alimulla Habibullaevning "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" qo'llanmasi o'zbek filologiyasi, tarixshunosligi va madaniyatshunosligida muhim ilmiy va amaliy manba hisoblanadi. Qo'llanma orqali manbashunoslik va matnshunoslikning asosiy tushunchalari, metodologiyasi hamda amaliy usullari mukammal yoritilgan. Kitob qo'lyozmalarni yig'ish, tartibga solish, fihrist tuzish, matnlarni tahlil qilish va nashrga tayyorlashda bebaho ilmiy yordamchi sifatida xizmat qilmoqda. Shu jihatdan u bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ilmiy qo'llanmalardan biridir. Manbashunoslik va matnshunoslikdan qisqacha ma'lumot beruvchi ushbu qo'llanma o'zbek tilida bu sohada qo'yilgan birinchi, qadam bo'lib, u asosan o'rta asrlar arabiy, forsiy va turkiy adabiy meros materiallari asosida yuzaga kelgan. Qo'llanmada nazariy qism alohida ajratib olinmay, fan asoslari bilan uning rivojlanish bosqichlari birga berib borildi. Buning sababi har ikkala soha — manbashunoslikda ham matnshunoslikda ham nazariy masalalarda hali bir to'xtamga kelinmagan ilmiy munozarali jihatlarining mavjudligidir. Mazkur qo'llanma ikki bo'limdan iborat bo'lib, biri Manbashunoslik, ikkinchisi esa Matnshunoslik asoslari deya yuritilgan. Har ikkala bo'limda ham soha bo'yicha 16 dan ziyod mavzular to'plami mavjud. Endi biz har bir bo'limning mavzularini tavsiflab, ularning amaliy ahamiyatini tasniflashga

harakat qilamiz. Birinchi bo‘lim Manbashunoslik haqida umumiy ma’lumotlardan boshlanadi va bu sohaga doir predmet hamda tarixiy jihatdan tadqiq qilinadi. Manbashunoslik yozma manbalarni yig‘ish, qidirib topish, tartibga solish va ulardan ilmiy foydalanish yo‘llarini o‘rgatuvchi fandır. Manbashunoslik fani o‘z rivojining dastlabki bosqichlaridanoq nazariy yo‘nalishdan ko‘ra amaliyotga yaqinroq holda rivojlangan. Manbashunoslikning amaliy sohasini ham yaxlit qamrab oluvchi kitob yoki darslik yo‘q. Biroq bu sohada, amalda juda ko‘p ishlar qilingan, kitob xazinasida kitoblarning sohasiga ko‘ra alohida xonalarda saqlanishi, ularga ro‘yxat tuzib qo‘yilganligi o‘sha davr amaliy manbashunosligini ko‘rsatuvchi dalildir. Barcha yirik kitob xazinalari bunday tartibga ehtiyoj sezganlar. Buxoroda saroy kitob xazinalaridan tashqari bir qancha madrasalarda ham kutubxonalar bo‘lgan. XI—XII asrlar amaliy manbashunoslik sohasida ro‘y bergan muhim voqealardan biri davlat arxivlari va ko‘plab kutubxonalarning barpo etilishi bo‘ldi. Bu davrdagi kutubxonalar haqida mufassal ma’lumotlar saqlanib qolgan. G‘aznaviylar davrida Xorazm, Rey, Xamadon, Isfahon singari yirik shaharlarining kutubxonalari Xurosondagi barcha iste’dodli va o‘qimishli kishilarni o‘ziga tortuvchi markazlar bo‘lib qolgan edi deb yozgan edi ak. Semyonov¹. Uchinchi mavzu esa manbalarning tur va shakllari deya nomlanib, manbalarni tili, kelib chiqish joyi, tarixiga ko‘ra, shakli, janri hamda yozilgan materialiga va mazmuniga ko‘ra tasniflaganlari haqida ma’lumot berilgan. Bu sohalarning zarurati manbashunoslik va matnshunoslik uchun bir xilda bo‘lmasada, ish asnosida ularga u yoki bu munosabat bilan murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Yozma manbalar tarixidan deb nomalanuvchi bu bo‘limda yozuv tarixi, qo‘lyozma manbalar, ularning yozuv tarixi bilan birgalikda rivojlanib borishi, piktografik yozuv, iyeroglif yozuv, mixxat yozuvi, paleografiya sohasi haqida yetarlicha ma’lumot berilgan, keyingi mavzuda turli yozuvda va davrlarda vujudga kelgan manbalar haqida yoritilib, xat turlari haqida dalillar keltirilgan. Avesto yozuvi,

xorazm yozuvi, so'g'd yozuvi, kushon, run yozuvi, uyg'ur hamda mo'g'ul yozuvlari haqida ham fikrlar bildirilgan, atamalar izohlangan. Yettinchi mavzu manba tushunchasiga ta'rif berilib, eng qadimiy manbalar, Avesto kitobi, turli qadimiy qissalar hamda ularning qanday qilib saqlanib qolganligi haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Shundan so'ng esa islom manbashunosligi, shakllanishi hamda rivojlanish tarixi, yuzaga kelish tarixi bayon qilingan. Eng muqaddas manba bo'lmish "Qur'oni Karim" vahiy orqali payg'ambarimizga yetkazilgani hamda o'sha davr muhiti, Qur'oni Karim haqida muhim ma'lumotlar yozilgan. To'qqizinchi mavzu esa adabiyotshunoslikka oid qadimiy manbalar bo'lib, "Devonu lug'otit-turk", tazkirachilik, aruz vazni, qofiya, muammo janri, badiiy san'atlar va boshqalar haqida bir qancha adabiy risolalar paydo bo'ldi. Saybakning aruzga doir ikki risolasi, Sayfi Buxoriyning "Aruz", "Radoyif ul-ash'or" risolalari, Kamoliddin Husaynning muammo haqidagi risolasi, Jomiyning muammo va qofiya yuzasidan yaratgan risolalari, Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois" va "Risolai muammo" asarlari, Boburning vazn va qofiyaga doir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эркинов. А. Матншуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 50 б.
2. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fihristi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 384 b.
3. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik, 2000. – 172 b.
4. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент: Фан, 1983. – 199 б.
5. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 52 б.
6. Ҳамидова М. Қўлёзма манбалар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. – 123 б.

7. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik, 2012. – 135 b.
8. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 252 б.